TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI

Xakimova Shahnoza Abdubannob qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika fakulteti Psixologiya mutaxassisligi
24/1- guruh magistranti
xakimovashahnoza4@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20525811

Annotatsiya:
Ushbu maqolada ta'lim jarayonida pedagogik mahoratning o‘rni va uning ta'lim sifatiga ta'siri o‘rganilgan. Innovatsion texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlar orqali ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish, o‘quvchilarning faolligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, pedagogik mahoratning ta'lim jarayonida muhim rol o‘ynashi va uning o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi ta'kidlanib, pedagogik mahoratni rivojlantirish zarurligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar:
ta’lim jarayoni, mahorat, pedagogik mahorat, kompenentsiya, innovatsiyalar, insonparvarlik, shaxsiy fazilat, kasbiy faoliyat.

KIRISH

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta’lim-tarbiyasi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ta’limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat - muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat - pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan. «Pedagogik ensiklopediyada» quyidagicha izohlangan: «O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutahassis.» Ushbu ta’rifning mohiyatidan kelib chiqib, o‘qituvchining pedagogik mahorati mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatgichi.
2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishi.
4. O‘quv tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir- biri bilan bog`liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash. [1]

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va

erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O‘quvchilarda ijtimoiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko‘p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash zarur. Bu pedagog kadrlarimiz oldida turgan eng muhim vazifadir.

Pedagogning ijodiy potensiali uning oz ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobining namoyon bo‘lishida, qobiliyati va kasbiy malakasini oshirishida, kutilmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, o‘quvchi va talabalarni komillik sari mohirlik bilan yetaklay olishida ko‘rinadi. [2]

O‘qituvchining ijodkorligi nafaqat dars jarayonlarida qolaversa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, ijodiy to‘garaklar faoliyatida, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda takomillashib boradi. Bu ayniqsa ijtimoiy- gumanitar fan sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning mahoratida o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim jarayonida pedagogik mahoratning o‘rni haqida yozilgan ilmiy asarlar va tadqiqotlar ta'lim sifatini oshirishda muhim yo‘nalishlarni ochib beradi. Pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalari, didaktik yondashuvlari, psixologik tayyorgarligi va shaxsiy fazilatlarining birligi sifatida talqin qilinadi. Ushbu jihatlar Yu. K. Babanskiy, Sh. Amonashvili kabi tadqiqotchilarning asarlarida keng yoritilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, V. S. Lazarev va A. A. Derkachning ishlari) o‘qituvchining innovatsion metodlarni qo‘llash qobiliyati, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashish, va kreativ yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Milliy ta'lim tizimida pedagogik mahoratga oid ishlar Alisher Qayumov, D. N. Karimov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xalqaro tadqiqotlarda esa ta'limda kreativ yondashuv va texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi ko‘rsatilgan.

Pedagogik mahorat ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligi haqida zamonaviy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar (OECD, UNESCO hisobotlari) dalil keltiradi.

Ushbu maqola uchun tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi yondashuvlar qo‘llanildi:

1. Teoretik tahlil

Pedagogik mahoratning mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi o‘rniga oid nazariy g‘oyalar o‘rganildi.

Milliy va xalqaro adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar tahlil qilindi.

2. Amaliy tadqiqotlar

Ta'lim muassasalarida pedagoglarning amaliy tajribalari o‘rganildi.

Pedagogik mahorat va o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun kuzatuv va suhbatlar o‘tkazildi.

3. Eksperimental metod

Pedagogik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening va seminarlarning ta'siri o‘rganildi.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi eksperiment yordamida baholandi.

4. Statistik tahlil

Olingan natijalar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, pedagogik mahoratning ta'lim sifatiga ta'siri ko‘rsatildi.

Bu yondashuvlar orqali maqolada pedagogik mahoratning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va ta'lim sifatiga ta'siri keng yoritiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida pedagogik mahoratning o‘rni beqiyosdir. Pedagogik mahorat o‘qituvchining nafaqat fan bo‘yicha bilimini, balki o‘quvchilarni tarbiyalash, ularni o‘rgatishda yangi metod va texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining pedagogik mahorati ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini rivojlantiradi va ular uchun mos o‘quv muhiti yaratadi. Innovatsion texnologiyalar va ta'lim metodlarini qo‘llash, o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni ijodkorlik va mustaqil fikrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent 2011-yil.
2. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogi mahorat. Darslik. Toshkent 2009-yil.
3. Xoliqov I. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o‘rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. Pedagogik mahorat. 1 -son (2022-yil, fevral)
4. Erkaboyeva N. Pedagogik mohorat. Oquv qo‘llanma. Toshkent. 2020-yil.
5. Tajibayev, M. A., & Axmedov, J. T. (2022). Sinergetik yondashuv-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri sifatida. Scientific progress, 3(3), 527-532.
6. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). The concepts of sustainability and instability in synergetics are an important principle. Scientific progress, 3(3), 930-933.